

ODIL YOQUBOVNING “ULUG‘BEK XAZINASI” ROMANIDA TARIXIY HAQIQAT VA BADIY TALQIN MAHORATI

Fayzullayeva Sabina Begzod qizi

Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti

O‘zbek tili va adabiyot yo‘nalishi 3-bosqich talabasi.

sfayzullayeva525@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19956334>

Annotatsiya. Mazkur maqola o‘zbek adabiyotida o‘z o‘rniga ega Odil Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasi” asarida tarixiy haqiqatlar, badiiy talqinning o‘rni va ahamiyati tahlilga olinadi. Romanda shoh va shoir Mirzo Ulug‘bekning fojiali taqdiri hamda o‘sha davrda ilm-fan qay darajada ekanligi yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Shoh, shoir, Mirzo Ulug‘bek, roman, tarixiy haqiqat, badiiy talqin, obraz, tarixiy obraz, to‘qima obraz, padarkush, Abullatif, ilm-fan.

Аннотация. В данной статье анализируются исторические факты, роль и значение художественной интерпретации в романе Одиля Якубова «Ulug‘bek xazinasi», занимающем важное место в узбекской литературе. Роман освещает трагическую судьбу короля и поэта Мирзо Улугбека и уровень развития науки того времени.

Ключевые слова: Шах, поэт, Мирзо Улугбек, роман, историческая правда, художественная интерпретация, образ, исторический образ, тканый образ, тесть, Абуллатиф, наука.

Abstract. This article analyzes the historical truths, the role and importance of artistic interpretation in Odil Yakubov's work "Ulug‘bek xazinasi", which has its place in Uzbek literature.

The novel highlights the tragic fate of the king and poet Mirzo Ulugbek and the level of science at that time.

Keywords: Shah, poet, Mirzo Ulugbek, novel, historical truth, artistic interpretation, image, historical image, woven image, father-in-law, Abullatif, science.

KIRISH. Odil Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasi” romanida Temuriylar sulolasining davomchisi Mirzo Ulug‘bekning hayot yo‘li, ayanchli o‘limi, o‘sha davr siyosiy-ijtimoiy masalalari, Pir darajasida bo‘lgan Ulug‘bekning shogirdlari tomonidan asrab qolingani durdona asarlarining hajmi, mohiyatan nechog‘lik mukammalligi yoritib berilgan. Bu roman tarixiy haqiqatlar va badiiy to‘qimalarni o‘zida mujjlashtirgani bilan boshqa asarlar farq qiladi.

Ijodkor asar yozishga bel bog‘laganda qissa yozishni maqsad qiladi. Biroq Mirzo Ulug‘bekning taqdirini yaratishda “Imkon boricha tarixiy materiallarni o‘rganib, Samarqandga yo‘l oldim. Go‘ri Amir va Ulug‘bek madrasalarining g‘ira-shira, nim qorong‘u yo‘laklarida kezdim, atoqli riyoziyotchi Qozizoda Rumiy va Ulug‘bek navjuvon talabalariga saboq aytgan mashhur madrasaning ulkan yarim vayron xonasida o‘yga toldim. Necha daf‘a buyuk rasadxona xarobalarida titroq va hayajon bilan ko‘zdan kechirdim. Endi meni Ulug‘bek obrazi – uning yuzi, sa‘yi harakati muttasil ta‘qib qilardi. Koinot sirlarini anglab yetgan bu buyuk inson nechun o‘zini butun borlig‘i ila ilmga baxsh etmadi? Toju-taxt uchun kurash naqadar behuda ishliligini nega tushunib yetmadi? - degan va keyinchalik kitobda Ali Qushchi tomonidan bayon qilingan fikrlar

hol jonimga qo‘ymasdi. Sarguzasht qissa haqida fikrdan voz kechib, katta tarixiy polotno ustida o‘ylay boshladim”[1.] - degan fikrlardan boshqa tarixiy romanlardan farqli ravishda bu ijod mahsulining yaratilish, qanchalik tarixiy haqiqatlar, ijodkorning badiiy talqinlashtirganini ko‘rishimiz mumkin.

Asar 2qismdan iborat:

1-qismi. Mirzo Ulug‘bekning fojiali taqdiri

2-qismi. O‘z otasining o‘limiga sababchi-padarkush Abdullatifning ayanchli o‘limi yoritiladi.

Adabiyotshunos H. Boltaboyev fikricha: “Ulug‘bek xazinasini” romanida Odil Yoqubovni birgina Ulug‘bek taqdiri qiziqtirmaydi (garchand u yirik tarixiy shaxs bo‘lsa-da), Ulug‘bekning ulug‘ligi ma‘rifatli shoh va ajoyib insonligidagina emas, u yaratgan ilmiy adabiy merosida aks etgan... Tarixiy janrning asosiy belgilaridan biri shundaki iboratki, yozuvchi kitobxon ko‘zi o‘ngida o‘sha davr ruhiyatini biriktira olishi kerak. Buning uchun u e‘tiborni tarixiy shaxslar taqdiriga qaratadimi, davrning suronli kurashlari manzarasi chizmasini yoki e‘tiborni ko‘proq qahramonlar tiliga qaratadimi, bu harakatlar yuqoridagi bosh maqsadga yo‘naltirilishi hamda shu kunga daxldor ma‘naviy masalalariga ham munosabat bildirilishi kerakki, ana shundagina tarixiy asar xalq ma‘naviyatini xazinasidan joy oladi”[2. 56-bet]. Yozuvchi tarixiy shaxslar siymosini yaratar ekan, davr muhitining murakkab, ziddiyatli qirralarini obrazlar tizimi orqali ochib beradi.

Toju-taxt kurashlarining avj olishi natijasida Ulug‘bek Mirzoning iztirobli hayoti yorqin lavhalarda o‘z aksini topgan.

Tarixiy haqiqat- bu o‘tmishda yuz bergan voqea-hodisalarni, manbalarga asoslanib, obyektiv va xolisona aks ettirishdir. Bunda subyektiv qarashlardan yiroq holda voqeaning asl sabab, oqibatlarini ko‘rsatib beradi.

Badiiy talqin esa, ijodkorning o‘tmishni jonlantirib, asarda o‘tmish voqealarini tiriltira olish mahoratidir. Har bir yozuvchi badiiy talqin mahoratiga ega. Odil Yoqubov ham “Ulug‘bek xazinasini” yaratishda tarixiy haqiqat va badiiy talqinni uyg‘unlashtirib tarixiy manbalar asosida har bir obrazni psixologik jihatlarini badiiy to‘qima orqali jonli tasvirlaydi. Biz muhokamaga oladigan mavzu ham aynan “Tarixiy haqiqat va badiiy talqin mahorati” hisoblanadi.

Roman markazini o‘sha davr haqiqatlari, muhitini butunligicha ochib beruvchi adolatli, ma‘rifatparvar shoh va shoir Mirzo Ulug‘bek obrazi hisoblanadi. Ijodkor tomonidan bu roman yozilganiga qadar o‘zbek tarixiy romanchiligida voqealarning tarixiy mohiyatini yaxlit holda aks ettiruvchi shoh obrazi gavdalandirilmagan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Asarda Ulug‘bekning ilm-fan borasidagi bilimlarining qay darajada mukammal va ideal olim sifatida ko‘rsak, biroq bobosi Amir Temurdek, otasi Shohrux Mirzo kabi davlat ishlarida uquvi yo‘qligini ko‘ramiz. Ulug‘bek obrazi orqali yozuvchi qanchalik buyuk shoh, Pir darajasiga yetgan inson bo‘lmasin, ilm-fanni, kitoblar va asarlarini toju taxtdan ustun qo‘ygan obraz sifatida gavdalandirgan. Ulug‘bekning umrining oxirgi yillarida shohlik hayotining ma‘nosizligi va ilmiy izlanishlaridagi taskin topish jarayonlarini ochib beradi.” Asarda metaforik til orqali shohlik hayotini ko‘z oldimizda jonlantirishdir. Ulug‘bekning so‘zlari bilan shohlar hayoti "mahobatli koshonalar"ga o‘shatiladi, ya‘ni bu tashqi tomondan chiroyli, go‘zal va buyuk ko‘rinsa ham, ichida rutubat va qorong‘ulik hukmronligini his qilish mumkin. Bu metafora, shohlikning zohiran jilolangan qiyofasida yashiringan ma‘nosiz va befarqlikni ifodalaydi.

Shohlar barpo etgan koshonalar yiroqdan ko‘zlarni qamashtirsa-da, ularga kirilganda etni junjiktiradigan sovuqlik va ma‘nisizlik his etiladi”. [3.214-bet]

Asardagi yana bir bosh obraz sifatida o‘z otasining o‘limiga sababchi bo‘lgan Abdullatifni ko‘ramiz. Abdullatifning shaxsiyatida ikki tomonlama insonni ko‘ramiz. Tashqi tomondan otasiga qarshi chiqqan, tojutaxt uchun hech narsani ayamaydigan obraz bo‘lsa, ichki tomondan esa ko‘rishimiz mumkinki, ichki ziddiyatlar oqimida qolgan, hayotidan mamnun bo‘lmagan, toju taxtni qo‘liga kiritgandan keyin hatto uxlay olmasdan kechalarni bedor o‘tkazadigan obrazni ko‘ramiz. Mirzo Ulug‘bek va Abdullatif suhbatiga e‘tibor beradigan bo‘lsak:

Mirzo Ulug‘bek: - Muhri Xudodur! bek: - Muhri Xudodur! Yodingda bo‘lsin: sohibi toj so‘zi bu ulamoyi kiromlar uchun vojbul imtisoldur! Qo‘rqma! Menga hech narsa kerak emas. Bu toj-u taxt, saltanat, shon-shuhrat – bari o‘zingga buyug‘ay! Otanga yolg‘iz rasadxonani in‘om etsang bas! Bir burda non, bir qumg‘on sovuq suv bo‘lsa yetar. Azmim- qolgan umrimni “Ziji Ko‘ragoniy”ni tugatib, mutolaa bilan kun kechirmoqdur!... [4. 113-bet]

Abdullatif: - Mudarris dastorini o‘ragan barcha murtaidlarni qanotingiz ostiga olib, din peshvolarini oyoq osti qilmishsiz! Bul uchun Haq taoloning qahriga, payg‘ambar alayhissalomning qarg‘ishiga uchrab, taxt-u tojdan, saltanatdan ayrilmishsiz. Ammo istig‘for aytmoqni tilamay, tavba- tazarru qilmoqni istamay, tag‘in rasadxonani o‘ylaydursiz!

-Ey, Parvardigori olam! Aning kalomini o‘zing eshitding! Gunohi azimga botgan bu osiy bandangni o‘zing afv etgaysan, Xalloqi olam!... [4.114-bet]

Bu ota va o‘g‘il dialogini o‘qir ekanmiz, bu ikki insonni otalik, o‘g‘illik rishtalari emas faqat tomirida oqayotgan qon birlashtirib turganini guvohi bo‘lamiz. Romandagi dialog va monologlar g‘oyaviy qarama-qarshiliklarni ochish uchun muhim bir vosita bo‘lib kelgan.

Asar tarixiy obrazlardan yana biri bu Ali Qushchi. Asarda bu obraz Ulug‘bekning eng ishongan va ishonchini oqlagan shogirdi sifatida talqin etilgan.

Romanda o‘z va‘dasiga sodiq qolib, Mirzo Ulug‘bekning kitoblari va qo‘lyozmalarni asrab qolish uchun qo‘lidan kelganicha barchaga qarshi chiqa oladi. Abdullatif va Ali Qushchi suhbatini buni yaqqol dalildir:

“-Tilasangiz devonga olamiz, devonbegi bo‘lasiz, tilasangiz saroyda muarrixlik(tarixchi) qilasiz... Yoningizga o‘zingiz istagan fuzalo va shuaroni olib, saltanat yumushlarini qalamga olib o‘ltirasiz...” [4. 220-bet]-deya Abdullatif Ali Qushchiga bergan taklifiga ham rozi bo‘lmasdan o‘z taqdiriga ko‘nadi.

Romandagi tarixiy obrazlar qatorida to‘qima obrazlar ham asarning bosh g‘oyasini chib berishga xizmat qilgan. To‘qima obrazlar tarixiy manbalarda nomi keltirilmagan, ammo o‘sha davr ruhiyatini, muhitini ifodalovchi obraz sifatida xizmat qiladi.

Asardagi to‘qima obrazlar sifatida, oddiy xalqni, Mirzo Ulug‘bek yonidagi maslahatchilari, xizmatkorlar, Abdullatifning yonidagi obrazlarni kiritishimiz mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD.

Maqolani yozish jarayonida qiyosiy tahlil metodidan foydalanilib, romandagi tarixiy haqiqatlar va badiiy talqin ijodkor tomonidan qanchalik mahorat bilan jonlantirilgani aniqlandi. Manba va adabiyotlardan foydalanish jarayonida H.Boltaboyevning “Nasr va uslub” nomli kitobidan, Niyozmetov Bunyodbekning “Odil Yoqubov “Ulug‘bek xazinasi” romanida tarixiy va zamonaviylik” mavzusidagi ilmiy ishlar va qo‘shimcha manbalardan foydalanib tahlilga olindi.

MUHOKAMA.

Muhokama bosqichida ijodkorning asar yaratishdagi mahorati va asarlari o'rganib chiqildi.

Romandagi tarixiy voqealar, obrazlar, qanchalik tarix ma'lumotlariga to'g'ri kelishi o'rganildi. Yozuvchining obrazlar yaratishdagi psixologik badiiy mahoratiga nisbatan qarashlar berildi.

XULOSA.

O'zbek adabiyotida o'z o'rnini, dunyoqarashi va asar yaratishdagi mahorati bilan ajralib turuvchi Odil Yoqubovning biz muhokamaga olgan "Ulug'bek xazinasi" asari ilmiy-estetik ahamiyatga ega hisoblanadi. Mazkur romanni tahlil qilish jarayonida ijodkorning tarixni ochib berish mahoratiga qisqacha baho berdik. Bu asar orqali yozuvchi Mirzo Ulug'bekning tarixda qanday yashab o'tgani, ilm-fanga qo'shgan hissasi, shogirdlari tomonidan kelajak avlod uchun asrab qolgan durdona asalarning taqdirini yoritib berganligini olimlar fikrlari va izlanishlar natijasi ko'rib chiqildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. H. Boltaboyev. (1992). "Nasr va uslub". Toshkent: "Fan". 56-bet
2. Niyozmetov Bunyodbek. "Odil Yoqubov "Ulug'bek xazinasi" romanida tarixiylik va zaminaviylik" nomli maqolasi AMERICAN JOURNAL OF EDUCATION AND LEARNING jurnali Toshkent. 2024. 212-215bet.
3. Odil Yoqubov "Ulug'bek xazinasi" Toshkent. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 2021. 113-114-214-betlar
4. <https://arxiv.uz/>